JUNNI DASTLABKI ISHLASHDA QO‘LLANILAYOTGAN XORIJIY TOZALASH MASHINALARINING TAHLILI

Ismoyilov Ibrohim Barotovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktaranti

Received: 16.09.2025
Revised: 17.09.2025
Accepted: 18.09.2025

Kalit so‘zlar:
jun tolasi, baraban kolosnik,prinsip, zig‘ir, ananas tolasi, paxta tolasi, shtapel, baraban.

Annotasiya. Respublikamizdagi yetishtirilayotgan jun xomashyosini dastlabki titish tozalash jarayoni 2-BT-150SH rusumli mashinasida amalga oshiriladi.Xorijiy davlatlarda FA303A, FA303B, FA303C, MP-2 mashinaladan foydalaniladi.Ushbu xorijiy tozalash mashinalari mahalliy qorako‘l zotli qo‘y junini dastlabki va qayta ishlay olmaydi.Qorako’l zotli qo’y juni dag’alligi ,tarkibida (jirapot) yog’-ter miqdori ko‘pligi sabab titish-tozalash jarayoni qiyin kechadi.

Kirish. Jun titish mashinasi FA303A, FA303B, FA303C uch xil modifikatsiyada Xitoy davlatining “Qingdao Yuanquan Machinery” korxonasi tomonidan ishlab chiqariladi. Har bir modifikatsiyani ko‘rsatgichlari har xil bo‘lsada ishlash prinsipi bir xil. Ya’ni, arrali baraban kolosnik panjara ustidan xomashyo ustidan sudrab o‘tish natijasida xomashyoni kolosnikka yengil ta’siri natijasida tolali mahsulot titilib qisman begona aralashmalardan tozalanadi.



1-rasm. FA303A rusumli titish mashinasi.

Quyidagi 1-jadvalda ushbi titish mashinalarini qisqacha texnologik ko‘rsatgichlari keltirilgan.

Junni dastlabki titish-tozalashda foydalanadigan xorijiy davlatlar mashinalarining texnik ko‘rsatkichlar jadvali.

1-jadval.

Rusmi	FA303A	FA303B	FA303C
Ishchi kengligi, mm	600	1000	360
Unumdorligi, kg/s	120-150	200-300	60-80
Talab qilinadigan quvvat, kVt	5	6,5	4

Mashina keyingi tozalash bosqichi uchun jun, paxta va kimyoviy tolalarni g‘ijimlangan va o‘ralgan tolalarini ochish, tozalash va yumshatish uchun mo‘ljallangan. Ushbu FA303C rusumli tozalash mashinasi namuna olish yoki universitet laboratoriyasida ishlash uchun mo‘ljallangan, ammo kichik ishlab chiqarish korxonalarida muntazam ishlab chiqarish uchun mos emas. Ushbu mashina uchun jun, zig‘ir, ananas tolasi, paxta tolasi kabi boshqa tabiiy tolalardan foydalanish mumkinligi isbotlangan. Kimyoviy shtapel tolasi ham mashina tomonidan osonlikcha qayta ishlanishi mumkin



2-rasm. MP-2 rusumli titish mashinasi.

MP-2 rusumli titish mashinasining asosiy vazifasi xomashyoni keyingi ishlov berishdan oldin titish uchun mo‘ljallangan. Jun xomashyosidagi katta bo‘laklarni mayda bo‘laklarga ajratadi, tolani shikastlash darajasi past bo‘lib qisman begona aralashmalardan samarali tozalaydi. Mashinaning texnik ko‘rsatgichlari quyidagicha: Unumdorligi: qayta ishlanadigan xom ashyoning turi va ifloslanganlik darajasiga ko‘ra soatiga 220-300 kg. O‘lchami: Uzunligi 140 sm, kengligi 140 sm, balandligi 120 sm, og’irligi 420 kg. Asosiy barabanga o’rnatilgan elektrodvigatel quvvati: 7,5 kVt. Ta’minlash moslamasiga sarflanadigan quvvat 1,1 kVt. Mashina Rossiya davlatidagi “Кард Маш” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan.

Xulosa. Dunyo bilan hamnafas rivojlanib borayotgan O‘zbekistonimizda jun va uni qayta ishlash sanoatiga talab katta va rivojlanib bormoqda.Maqolada xorijda ishlab chiqarilgan junni dastlabki ishlash mashinalari bilan 2BT-150-SH

masinasi taqqoslanib olingan.Qorako‘l zotli qo‘y junini qayta ishlash uchun 2BT-150-SH junni titish- tozalash masinasining afzallik tomonlari ko‘p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IsmoyilovI.B., IsmoyilovF.B, Ko‘ldoshev.E.I, O‘zbekistonda yetishtirilayotgan jun xomashyosi mahsuldorligi va sifat ko‘rsatgichlari. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. Buxoro: 2025. №2, 354-359 b.

2. Шерсть полугрубая и грубая неоднородная мытая сортированная Гост 26588-85 Издание официального переиздание июнь 1997 г. с Изменением № 1, утвержденным в декабре

3. Rizaev Sh, Zokirov M, Sidorsov V, Ismoilov L, Ibragimov Yu. “Junshunoslik va jun tovarshunosligi”. Toshkent.: «Mehnat», 1985. – 221 b.

4. IsmoyilovI.B., IsmoyilovF.B, Ko‘ldoshev.E.I, Qayumov J.A., Jun tolasi tarkibidagi begona aralashmalarni tozalash mashinasining texnologik parametrlarini nazariy asoslash. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. Buxoro: 2025. №2, 347-353 b

5. Ismoyilov F.B Jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasi. Darslik. Buxoro.: «Bukhara Brilliant Cargo» nashriyoti, 2024. – 292 b.

6. Зелуатдинов В.В. Физические и технологические свойства шерсти помесей австралийский меринос с алтайскаya тонкоруннаya в сравнении с шерстью овец алтайской тонкорунной породы. Автореферат. – Москва: 1983. – 178 с

7. Патент Российскаya Федератsиya RU, № 2049183. Обезрепеивающаya агрегат У-1 / Угрюмов А.А. // 16.08.1998.

8. Патент Российская Федерациуа, RU, № 2049183 Установка для очистки шерсти от растительных примесей / Афанасьев В.К., Буланов А.Б., Блинкова И.Д. и др. // 27.11.1995.

9. Патент Российская Федерация, RU, №2128735. Машина для рыхления и очиски шерсти. / Колдаев В.М// 10.04.1999.